TARIX

UDK: 93/94+336.1(575.1) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss5/a15**

TOSHKENT YEPARXIYASIGA BOSHCHILIK QILGAN RUHONIYLAR FAOLIYATI TAHLILI

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СВЯЩЕННИКОВ ВОЗГЛАВЛЯЕМЫХ ТАШКЕНТСКОЙ ЕПАРХИЕЙ

ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF PRIESTS HEADED THE TASHKENT DIOCESE

Sharofiddinov Abdug‘affor [1], Mukarramov Dilshod Qosimovich[2]

[1]Sharofiddinov Abdug‘affor − Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi,

[2]Mukarramov Dilshod Qosimovich − Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Maqolada xristian dinining Turkiston o‘lkasiga kirib kelishining qisqacha tarixi, ushbu din vakillarining Chor Rossiyasi tomonidan o‘lkaning bosib olinganidan keyingi hayoti, diniy tashkilotlari faoliyati, xususan Toshkent yeparxiyasi va unga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyatining tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется краткая история проникновения христианской религии в Туркестанский край, жизнь представителей этой религии после оккупации территории царской Россией, деятельность религиозных организаций, в частности Ташкентской епархии и деятельность возглавляемого ею духовенства.

Abstract

The article analyzes the brief history of the penetration of the Christian religion into the Turkestan territory, the life of representatives of this religion after the occupation of the territory by Tsarist Russia, the activities of religious organizations, in particular the Tashkent diocese and the activities of the clergy headed by it.

Kalit so‘zlar: *din, xristian dini, katolik, provoslav, cherkov, yeparxiya, ruhoniy.*
Ключевые слова: *религия, христианская религия, католик, православие, церковь, епархия, священник.*
Key words: *religion, Christian religion, Catholic, orthodoxal, church, diocese, priest.*

KIRISH

Xalqaro mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo aholisining 83 foizi fikr, vijdon va din erkinligini qattiq cheklashmoqda. Din, e’tiqod yoki kufrga asoslangan ta’qiblar, repressiyalar va kamsitishlar ko‘plab mamlakatlarda kunlik haqiqatdir.

Hozirgi kunda jahonda, ma’lum bir davlat hududida bir din vakillari yaxlit ko‘pchilikni tashkil qilsalar ham, boshqa turli din va ta’limot vakillari ham birgalikda istiqomat qiladilar. Ushbu vaziyatda davlatning oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadi – bu turli millat vakillari, dinlar va ta’limotlarga e’tiqod qiluvchilarning o‘zaro tinch-totuv, inoq, bahamjihat bo‘lib istiqomat qilishlari va bor kuch va shijoatlarini vatan taraqqiyotiga erishish yo‘lida birlashtirish – ustuvor vazifa sifatida o‘rnatilgan.

O‘zbekiston milliy qonunchilik tizimi mamlakatda yashovchi barcha 16 din vakillari uchun teng sharoit yaratmoqda. Konstitutsiya vijdon va e’tiqod erkinligini kafolatlaydi, tegishli qonunchilik bazasi barcha fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratadi, milliy yoki diniy mansubligidan qat’i nazar, fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini ta’minlaydi va shu asosda kamsitishlarga qarshi samarali kurashadi.

O‘zbekiston hududida xristianlik dini o‘choqlari ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ushbu dinning pravoslav oqimi kirib kelishi 150 yillik tarixga ega. Xususan, XIX asr o‘rtalarida Turkiston hududining bir qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi yersiz va qashshoq aholining shimol tomondan ko‘chirilishi bilan bir davrda sodir bo‘ldi[1].

Rus pravoslav cherkovining Toshkentdagi Uspenskiy kafedral sobori – Toshkent yoki O‘zbekiston yeparxiyasi 1871-yil bahorda Verniy (Olma-Ota) shahrida Turkiston parxiyasi tarzida tashkil topgan. (12. Ismoilov U.Q., 2020) Sobiq Ittifoq davrida yeparxiya xodimlari ta’qib ostiga olingan, boshqaruv bolsheviklar qo‘liga o‘tgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida beva ayollar tashrifi uchun faoliyat yuritgan. XX asrning 50 – yillaridan boshlab esa yana ta’qib kuchaygan. Mustaqillik yillarida diniy erkinlik berilgan. 2011-yilning 27-iyulidan yangi tashkil etilgan O‘rta Osiyo mitropoliya o‘lkasi tarkibiga kiritilgan. Toshkent

yeparxiyasi rahbari mitropoliya o‘lkasiga boshchilik qiladi. Mitropoliya o‘lkasiga taalluqli ishlar, hamda liturgik ibodatlar vaqtida O‘rta Osiyo mitropoliti deb nomlanadi.

Toshkent shahridagi Uspenskiy kafedral soborida, XIX asrning boshlarida parxiyaga arxiyepiskop Dmitriy (Abashidze) tomonidan olib kelingan, Bibi Maryamning Iver ikonasining Afon muqaddas tog‘ida chizilgan nusxasi saqlanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy uslublar – tarixiylik, qiyosiy – mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda dunyo aholisining diniy qarashlari va dunyoda turli din, millat vakillari o‘rtasidagi sodir bo‘layotgan ziddiyatlar, hamda turli sabablarga ko‘ra yurtimizga kelib qolgan va shu yerda qolib, yashab faoliyat yuritayotgan o‘zga millat va din vakillariga davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, O‘zbekiston xalqining bag‘rikengligi, tinch-totuvligi, tinchliksevarligi, hukumatimiz tomonidan bu borada olib borilayotgan oqilona siyosatning mamlakatning ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy hayotida yuksak natijalarga erishayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

1897-yildan 1911-yilgacha, ya’ni 14-15 yil davomida o‘lkadagi xristian dini vakillarining soni 128% ga, yahudiylar soni 127% ga, o‘lka aholisining 95% ni tashkil etgan musulmonlar soni tabiiy o‘sish hisobiga 19,4% ga ko‘paygan. Shuni alohida qayd etish lozimki, xristianlarning pravoslav mazhabiga mansub vakillarining soni 128% ga, katolik mazhabiga mansub aholi esa 41% ga ko‘paygan[2].

Bu davrda o‘lkada keng tarqala boshlagan nomusulmon diniy konfessiyalardan biri – xristian dini bo‘lib, bu eng avvalo, o‘lkada xristian dini vakillari hukmronligining o‘rnatilishi va ko‘plab rus aholisining ko‘chib kelishi bilan bog‘liq edi. Xristian dini hukumat tomonidan muhofaza ostiga olingan yagona din edi. Hukumat o‘lkada o‘zi uchun kuchli tayanchni yuzaga keltirish, xristian dinini kengaytirish va mustahkamlash maqsadida ko‘plab rus aholisini ko‘chirib kelish siyosatini amalga oshiradi. O‘lkaga ko‘chib kelish uchun xristianlarning faqat pravoslav mazhabiga mansub vakillari uchun ruxsat berilgan bo‘lib, ular uchun ko‘plab imtiyozlar yaratilgan.

Bundan tashqari juda ko‘p rus harbiy qo‘shinlari, amaldorlarning oilalari ham joylashtirilgan bo‘lib, bu holatlar o‘lkada xristian dini vakillari sonining keskin ko‘payishiga olib keldi. Mamlakatda o‘z hukmronligini o‘rnatgan Rossiya imperiyasida xristianlikning pravoslav mazhabi hukmron bo‘lgani tufayli ham ularning diniy e’tiqodlari uchun tegishli sharoitlar yaratib berildi. Turkistonga 1865 yilda rus qo‘shinlari kirib kelishi bilanoq ilk pravoslav ruhoniylari paydo bo‘ldi. Shaharda rus harbiylari uchun vaqtinchalik ibodat uylari tashkil etiladi. Dastlabki yillarda pravoslav jamoalari Orenburg va Tomsk yeparxiyalari tarkibida bo‘ladi. Rus aholisi ko‘payib borishi bilan muntazam faoliyat ko‘rsatuvchi ibodatxona va ruhoniylarga ehtiyoj kuchayib, 1871-yilda Toshkent va Turkiston Yeparxiyasi tashkil etiladi. Lekin general-gubernator K.P.Kaufman Toshkentda kafedra ochilishiga rozilik bermagani tufayli Yeparxiya Verniy (hozirgi Olma-ota) shahrida tashkil etiladi. Pravoslav cherkovlari deyarli barcha yirik shaharlarda tashkil etiladi. Chunki barcha yirik shaharlar viloyat va uyezd markazlari bo‘lib, ularda juda ko‘p rus aholisi – amaldorlar, harbiylar, sanoatchilar, savdogarlar, temir yo‘l xizmatchilari yashardilar. Yirik shaharlarning barchasida rus aholisi uchun “yangi shaharlar” tashkil etilgan bo‘lib, bu yerlarda ular uchun barcha shart-sharoitlar – teatr, park, dorixona, kasalxona va albatta, cherkovlar tashkil etilgan. Toshkentda 16 ta pravoslav ibodatxonalari tashkil etilgan edi. 1873-yilda Toshkent yaqinida pravoslav ayollar uchun ilk monastir ham tashkil etiladi.

Xristian dinining pravoslav mazhabi davlat himoyasi ostida bo‘lgani tufayli uning kengayishi va mustahkamlanishi uchun mablag‘ va imkoniyatlar yetarli edi. O‘lkaga ko‘chib kelayotgan ruslar asosan pravoslavlar bo‘lgani uchun bu jamoa yil sayin ko‘payib bordi va ular soni esa 1897-yilda 197.420 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1911-yilga kelib, 451.415 kishiga yetadi, ya’ni qariyb 2 barobarga ko‘payadi[2].

1916-yildan boshlab, «Turkiston yeparxiyasi xabarlari» («Turkestanskiye yeparxialniye vedomosti») nomli oylik jurnal chiqarila boshlandi. O‘lkada pravoslavlar mavqeini mustahkamlash va ular uchun ibodatxonalar qurish va ko‘paytirish, jamoalarni ro‘yxatga olishda bu yerda xizmat qilgan yepiskoplar Aleksandr va Dmitriy (Abashidze)ning roli katta bo‘lgan. 1909-yilda xristian dini ulamolarining Turkiston syezdi ham bo‘lib o‘tadi. 1916-yilga kelib, yeparxiya kafedrasi Verniy shahridan Toshkentga ko‘chiriladi.

Turkistonda xristian dinining pravoslav oqimiga mansub kishilar bilan bir qatorda lyuteran va katoliklar ham bor edi. Katoliklar soni 1897-yilda 5.579 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1911-yilda 7.876 kishiga yetdi[2]. Garchi, harbiylarning diniy e’tiqodlari uchun sharoitlar qilib berilgan bo‘lsa-da, katoliklar o‘z ibodatxonalariga bir necha yil keyin erishadilar. Toshkentdagi katoliklar 1875-yilda rimkatoliklar mitropolitiga murojaat qilib, o‘zlari uchun kapellan jo‘natishni so‘rashadi. Lekin bunga ular faqat 1883-yilda erishadilar. O‘sha yili Toshkentga Minskdan Kanonik Ferdinant kelishi munosabati bilan ilk

kapellyatsiya ochiladi. Ammo, kapellan Minskka qaytib ketishi bilan ibodatxona yopilib, binosi sotib yuboriladi. XIX asr oxirida katoliklar yevangel-lyuteranlarning ibodatxonalari (kirx)da ibodat qila boshlaydilar. Ularning o‘z ibodatxonalariga ega bo‘lish haqida hukumatga qilgan murojaatlari turli bahonalar bilan rad etib kelingan.

Imperiya hukumatining katolik oqimiga nisbatan siqishtiruv siyosati tufayli katoliklar XX asr boshiga qadar o‘z ibodatxonalariga ega bo‘la olmadi. 1902-yilda Turkiston o‘lkasida rim-katolik cherkovlari uchun kurat shtati ajratilib, bu lavozimga Yustinas Bonaventura Pranaytis tayinlanadi va shu davrdan boshlab, rim-katolik cherkoviga asos solinadi. Lekin unga ibodatni lotin tilida olib borish sharti qo‘yiladi. Chunki katoliklar ichida surgun qilingan polyaklar ko‘p bo‘lib, imperiya hukumati ularning muloqoti va birlashuvidan juda xavotirda edi. Cherkovda ibodatdan tashqari katoliklar orasida cho‘qintirish hamda tug‘ilish, nikoh, o‘lim holatlarini qayd etish ishlari olib boriladi.

1905-yilda hukumat Turkiston qo‘shinlaridagi rim-katoliklar va yevangellyuteranlarga 1 yilda 3 marta pravoslav ibodatxonalarida ma’lum kunlarda ibodat qilishga ruxsat beradi. Ba’zi viloyatlarda katoliklar uchun ibodat uylari tashkil etila boshlanadi. 1905-yilda Skobelev va Qizil-Arvat shaharlarida chasovnya quriladi. Lekin Toshkent shahrida katoliklar uchun kostel qurish masalasi hukumat tomonidan “xristian dinining ikki oqimi bir-biridan farq qilishi tufayli ularning ibodatxonalari ham bir-biridan uzoq bo‘lishi kerak”, degan bahona bilan rad etiladi.

1914-1915 yillarga kelib, Turkistonga Birinchi jahon urushida Rossiya tomonidan asir olingan Avstriya, Polsha va Vengriya fuqarolari jo‘natiladi. Pranaytis hukumatga murojaat qilib, ularni qurilishga jalb etishga ruxsat so‘raydi. Asirlar ichida malakali arxitektorlar, haykaltarosh va qurilish mutaxassislari ko‘p bo‘lib, ular kostel loyihasini qayta ishlab chiqishadi va qurilish ishlari boshlanadi. Kostel 25 metr balandlikda quriladi. Pranaytis uni xuddi Sankt-Peterburgdagi kostel kabi mahobatli bo‘lishini xohlardi. Pranaytisning o‘limi tufayli kostel qurilishi oxirigacha yetmay qoladi. Katoliklarning imperiya hukumati tomonidan siquvga olishiga qaramay, ular o‘z e’tiqodlarini saqlab qolish uchun hamma imkoniyatlarni ishga soladi va bunda kurat Pranaytisning roli katta bo‘ladi. Hukumat katoliklarga doim g‘ashlik bilan qarab keladi. 1910-yilda katolik kurati Pranaytisni pravoslav mazhabidagi kishini katolikka og‘dirib olganlikda ayblab, uni sudga beradi. Ma’lum bo‘lishicha, Pranaytis katolik vakili bilan pravoslav vakili bo‘lgan erkak va ayolni nikohlagan. O‘lkadagi katoliklar soni pravoslavlarnikiga nisbatan ancha kam bo‘lsa-da, turli omillar ta’sirida ko‘payib bordi. 1897-yilda ularning soni 5.579 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1911-yilda 7.876 kishiga yetadi[2].

Bu davrda Toshkentda yahudiylar ham yil sayin ko‘payib boradi. Rossiya imperiyasi XIX asr o‘rtasida O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo aloqalari olib borishda Buxoro yahudiylariga katta imkoniyatlar yaratib, ularga imperiya hududida o‘rnashib, savdo yarmarkalarda savdo qilish huquqlarini beradi. Bu esa yahudiylarning O‘rta Osiyoning Rossiya bilan aloqasida faol ishtirok etishiga imkon beradi. Bunday imkoniyatlar tufayli yahudiylar Rossiya imperiyasiga katta xayrixohlik bilan qarab, o‘lkani bosib olishini ijobiy kutib olishadi va ba’zi holatlarda hatto, yordam ham berishadi.

Imperiya hukumati yahudiylarning bu xizmatidan unumli foydalanadi va o‘lkani egallab olgach, Turkiston hududida ularga katta imkoniyatlar yaratadi. Buxoro yahudiylari savdo gildiyalariga a’zo bo‘lish orqali imperiya fuqaroligini qabul qilish huquqiga ega bo‘lishadi, soliq tizimidagi ilgarigi cheklashlardan ozod bo‘lishadi. Bunday imtiyozlar tufayli Toshkentga Buxoro amirligidan ko‘plab yahudiylar ko‘chib keladi. 1897 yilda ularning soni 11.444 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1911-yilga kelib, 25.974 kishiga yetadi[2].

MUHOKAMA

Turkistonning ilk davrdagi pravoslav cherkovi e’tiqodlilarining sonini aniqlash mushkul. Chunki hududda ilk bora aholini ro‘yxatga olish ishlari 1897-yildagina amalga oshirilgani buni asoslaydi.

Tadqiqotchi Siryapkina pravoslav cherkovining mazkur hududda vujudga kelish va rivojlanish tarixi 3 (uch) bosqichga bo‘linishini ta’kidlab o‘tadi, jumladan:

Chor Rossiyasi hukmronligi davri;

Sovet hokimiyati davri;

Mustaqillik davri[2];

Birinchi bosqich. Turkiston o‘lkasida pravoslav cherkovlari XIX asrning 40-yillaridan faoliyat ko‘rsata boshlagan. Mintaqaga rus armiyasi bilan birga polk ruhoniylari ham kirib kelgan. Harbiylar va o‘lka boshqaruv idoralari xodimlari bilan bir qatorda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan kambag‘al, yersiz chorikorlar ko‘chirib kelinishi hisobiga o‘lkadagi pravoslav xristianlarining soni ortib bordi.

Ana shu jarayonlarning ta’siri natijasida O‘rta Osiyoda muqim pravoslav cherkovlari ham qurila boshladi. Ularning birinchisi 1847-yil Sirdaryo viloyatidagi Raim istehkomida qurildi. Shundan so‘ng Toshkent (1865), Jizzax (1866), Avliyo ota (1866), Julek va Merke (1866), Turkiston (1866), O‘ratepa (1867), Chinoz (1868), Chimkent (1868) pravoslav jamoalari tashkil qilinib, ularda doimiy harbiy ruhoniylar

faoliyat olib bordi. So‘ngra Zarafshon okrugiga qarashli Samarqand va Kattaqo‘rg‘onda ham jamoalar shakllandi[3]. 1871 yilda Rossiya imperatorining farmoniga binoan Rus pravoslav cherkovining Toshkent va Turkiston yeparxiyasi tashkil etilgan. Uning markazi etib Verniy (hozirgi Olmaota) shahri tanlangan. 1916 yilning oxirlariga kelib yeparxiya markazi Toshkentga ko‘chirilgan[3]. Cherkovlar soni O‘zbekistonda nisbatan ko‘p ekani e’tiborga molik sanaladi. Bu XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining janubiy chekkalari, ya’ni Turkistonning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Bu xronologik davrda davlat Turkiston general hukumatida pravoslav dinining tarqalishini qo‘llab-quvvatladi. Pravoslavlik ko‘chib kelgan aholining ma’naviy va axloqiy ehtiyojlarini ta’minladi. Rossiya pravoslav dehqonlarini Turkistonga ko‘chirishni maqsadli ravishda rag‘batlantirdi. Shu maqsadga muvofiq, Turkiston ma’muriyati XIX asr oxiri XX asr boshlarida pravoslav aholining diniy ehtiyojlarini qondirishga to‘liq hissa qo‘shishga intildi. Barcha yangi kelgan pravoslavlar avtomatik ravishda rus pravoslav cherkovining g‘amxo‘rligiga topshirildi. 1871-yilda Turkiston va Toshkent yeparxiyasi tuzildi. Ibodat uylari dastlab aholi punktlarida tashkil etilgan, iqtisodiy vaziyat yaxshilangani sababli, jamoat cherkov qurilishi uchun pul olgan. Ba’zan ibodatxona qo‘shni qishloqlardan kelganlarni ham qabul qilgan. Turkiston shaharlarida sekin-asta yirik soborlar paydo bo‘ldi. Davlat pravoslavlikni qo‘llab-quvvatlagan, chunki Turkiston bosib olingandan to O‘zbekistonda sovet hokimiyati o‘rnatilgunga qadar pravoslavlik ruslar uchun mintaqaning tub aholisidan ajratib turuvchi muhim identifikatsiya mezoni bo‘lgan.

Imperiya tomonidan egallangan hududda pravoslavlikni yoyishdan asosiy maqsad ko‘chirib keltirilgan rus aholisini yig‘ib, ularni xurofot va illatlardan himoya qiladigan va yosh avlod uchun ma’lumot manbai sifatida qo‘llashdan iborat bo‘lgan. Ko‘chirish boshqarmasi qoshidagi maxsus topshiriqlar bo‘yicha mas’ul xodim N.Gavrilovning viloyatda cherkovlar qurilishi to‘g‘risidagi ma’ruzasida dinning o‘lkada tarqalishi imperiyaning cheksizlik sari intilishini ifodalovchi vosita sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchi Atajanova tomonidan olib borilgan tadqiqotda ko‘chirilgan aholi orasida missionerlar mavjud ekani qayd etilgan[4].

Bu davrda asosiy rus-pravoslav cherkovlari ochilgan hududlar sifatida Toshkent va Farg‘ona vodiysini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Keyinchalik egallangan hududlar sonining o‘sib borishi natijasida Samarqand va Buxoro singari yirik shaharlarda ham e’tiqod qiluvchi jamoalar va cherkovlar ochildi.

Ikkinchi bosqich Sovet davlati davridagi pravoslavlik. Mazkur davlat vujudga kelishi bilan g‘oyaviy dohiylar K.Marks va F.Engels tomonidan dinga bo‘lgan munosabat etalon sifatida tatbiq etilib, 1920-1930 yillarda ateizmni o‘zining shiorlaridan biri deb e’lon qilgan Sovet davlati sharoitida pravoslav ruhoniylari yangi qiyinchiliklarga duch kelishdi. 1939 yil kuziga qadar SSSR siyosiy rahbariyati NKVDning faol yordami bilan pravoslav cherkovini butunlay yo‘q qilish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. 1939-yilga kelib ruhoniylarning aksariyati hamda yepiskoplarning katta qismi jismonan yo‘q qilingan yoki qamoqda edi. Buning asosiy sababi qizil inqilob davrida cherkovning egallagan pozitsiyasida edi, ya’ni cherkov fuqarolar urushi davrida qizil armiyaga qarshi kuchlarni qo‘llab-quvvatladi (kontrevolyutsiyani qo‘lladi).

Cherkovga nisbatan yuritilgan siyosat 1943-yilga kelibgina yumshaganini ko‘rish mumkin. Cherkov va uning xizmatchilari orasida renovatsion ajralish, cherkovlar, soborlarni esa vayron qilish va pravoslavlar sonining qisqarishi bu davrga xos xususiyatlar hisoblanadi. Bularning barchasi pravoslav e’tiqodidagi odamlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi, yakshanba va boshqa pravoslav bayramlari e’tiqodlilar uchun muqaddaslik timsoli sifatidagi ma’nosini kamaytirdi. Inqilobdan oldingi davrda yirik pravoslav soborlari bo‘lgan shaharlarda sovet rahbariyati cherkovlar ochilishiga qisman ruxsat bergan. Masalan, 1946-yilda Farg‘onada Polsha cherkovi binosida pravoslav ibodatxonasi ochilgan. Toshkent viloyati va boshqa hududlarda sanoatlashuv jarayoni natijasida paydo bo‘lgan sovet shaharlarida e’tiqodiy tushunchalar juda sust tarqalgan va qisman cherkovlar mavjud bo‘lmagan. Bu esa o‘z navbatida sovet ideologiyasi ruhida tarbiyalangan jamiyatning dindan ancha uzoqlashganini yana bir bor isbotlaydi.

Uchinchi bosqich. SSSR parchalanishi natijasida ittifoq tarkibidagi respublikalar milliy ruhdagi alohida davlat qura boshladi. Aynan mazkur davrda cherkov va uning faoliyatini tashkil etishda siljish ro‘y berganini ko‘rish mumkin. Buning asosiy sababi, mustaqil davlatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasida diniy erkinlik masalasi konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lgani (18,31-moddalar) bilan izohlanadi.

Davlat ateizm siyosatini rad etishi ortidan turli diniy tashkilotlar, shu jumladan, Rus pravoslav cherkovi (Moskva Patriarxiyasi) jamoalarining keskin ko‘payishiga va shunga mos ravishda ilgari yopilgan cherkovlarning ommaviy ochilishiga, yangilarining paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘zbekistonda yirik aholi punktlarining eng mos inshootlarini ibodatxonalarga moslashtirish amaliyoti faol joriy etila boshlandi. Mustaqillik yillarida diniy sohadagi ijobiy siyosat olib borilishiga qaramasdan pravoslav cherkovlari soni asosan shaharlarda ochildi, qishloq va chekka hududlarda yangi cherkovlar vujudga kelmadi[5].

TARIX

Bu iqtisodiy jihatdan qudratli sanalgan Rossiya Federatsiyasining olib borgan yangi demografik siyosati natijasida Ittifoq respublikalarida yashovchi etnik ruslarning ortga qaytishi bilan izohlanadi. Jumladan, so‘nggi aholini ro‘yxatga olish olib borilgan 1989-yilda etnik ruslar (boshqa slavyan xalqlari, greklar bilan birga) umumiy aholi soniga nisbatan taxminan 5,5 foizdan ko‘p qismini tashkil etgan, mazkur foiz ko‘rsatkichi 2013-yilga kelib taxminan 3 foiz atrofida bo‘lgan[6].

Bugungi kunda O‘zbekiston hududida joylashgan cherkovlar soni 38 tani tashkil etadi (1991 yildan mazkur son 34 tani tashkil etgan, bu ham sovet davrida olib borilgan siyosat mustaqillik davrida olib borilmaganligi isboti sanaladi, zero, aholi soniga nisbatan rus va o‘zga slavyan xalqlari ulushi kamaygan bo‘lishiga qaramasdan cherkovlar soni progressiv ko‘rinishga ega), shu bilan birga, diniy xizmatchilarni yetishtirib beruvchi 1 ta rus-pravoslav seminariyasi faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respubilikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari qo‘mitasi konfessiyalar ishlari kengashi tarkibiga mazkur jamoa yetakchisi vakil sifatida kiritilgan[7].

Pravoslav cherkovlarining asosiy qismi badiiy-tarixiy qiymatga ega bo‘lgani sababli ko‘chmas mulkning moddiy-madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilib, davlat muhofazasiga olingan. «Russkiy Mir» fondi tomonidan 2017-yilda olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadaki, rus-pravoslav cherkovi va unga e’tiqod qiluvchilarning O‘zbekistonda diniy e’tiqod qilishida monelik yo‘qligini ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari mustahkamligi (71 foiz respondent buni tasdiqlagan) bilan izohlash mumkin.

XULOSA

Xullas, XIX asr oxiri XX asr boshlarida bu hududlarda nomusulmon konfessiyalar ko‘payib, turli din vakillarining soni ko‘payib bordi. Hukumatning ularga nisbatan noteng siyosati ularning o‘z diniy e’tiqodlarini amalga oshirishda sun’iy to‘siqlar yaratsa-da, o‘zaro munosabatlarida diniy to‘qnashuvlar sodir bo‘lmadi. Aksincha, asrlar davomida diniy bag‘rikenglik xislatlariga ega bo‘lgan Turkiston xalqlari boshqa din vakillari bilan tinch qo‘shnichilik munosabatlarini olib borishdi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сиряпкина Ю.Н. Православная церков в Узбекистане во второй половине XIX – начале XXИ века под влиянием политики центральной власти // Вестник Кемеровского государственного университета 2015 № 4 (64) Т. 1. С. 42.

2.Любимов П.П. Религии и вероисповедный состав Азиатской России. Петроград, 1914. С. 44-45

3.Ibragimov E.F. O‘zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag‘rikenglik an’analari shakllanishida tutgan o‘rni 24.00.01 — Dinshunoslik tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2010. –B. 15.

4.Атаджанова С. Э. Миссионерская деятельность Русской православной церкви в конце XIX – начале XX веков в Средней Азии // Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №3. С. 550-554.

5.Стаценко С. Специфика современного конфессионального состояния православной диаспоры в Средней Азии // Втории востоковедческие чтения памяти Н. П. Остроумова. Ташкент, 2010. С. 301 – 328.

6.Этнический атлас Узбекистана. Институт «Открытое общество», 2002.

7.https://lex.uz/docs/3685963?ONDATE=18.04.2018%2000